



**O‘TGAN ZAMON FE’L SHAKLLARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA
TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR (JORJ ORUELNING “MOLXONA”
ASARI ASOSIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21269526>

Ismonaliyev Jamoliddin Qo‘ldashaliyevich

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘tgan zamon fe‘l shakllarini, asosan, Past Perfect Continuous hamda Future in the Past zamonlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari tadqiq qilingan. Unda Jorj Oruelning “Molxona” asaridagi tarjima namunalari diqqat markaziga olingan. Tarjimadagi yutuq va kamchiliklar ko‘rsatilib, yuqorida ta’kidlangan ikki zamonnini tarjima qilishga doir tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekvivalentlik, analitik, agglyutinatív, funksionallik, semantik, morfologik*

Abstract. *This article examines the challenges of translating past verb forms – specifically the Past Perfect Continuous and Future in the Past tenses – from English into Uzbek. It focuses on translation examples from George Orwell’s “Animal Farm”. The article highlights both the successes and shortcomings of the translations and offers recommendations for translating the two aforementioned tenses.*

Key words: *equivalence, analytic, agglutinative, functionality, semantic, morphological*

KIRISH.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘tgan zamon fe‘l shakllarining chog‘ishtirma tadqiqi ikki tilning o‘zaro tarjima jarayonlarida ekvivalentlikni ta’minlash uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili analitik, o‘zbek tili esa agglyutinatív tizimga ega ekanligi tufayli, bu tillardagi zamon kategoriyasi ham struktur, semantik va funksionallik jihatidan bir-biridan farqli xususiyatlarga ega. Tabiiyki, bu nomutanosiblik tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta’minlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababdan, o‘tgan zamon

fe‘l shakllarini o‘zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda asosan morfologik muvofiqlik emas, balki semantik ekvivalentlikni ta’minlash zarurati yuzaga keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tili grammatikasida aniq qoidalarga ega bo‘lgan *Past Perfect Continuous* zamonining o‘zbek tilida semantik ekvivalenti mavjud emasligi tarjima jarayonida muammolarni yuzaga keltiradi. *Past Perfect Continuous* zamoni mustaqil ravishda o‘tmishdagi ma‘lum bir paytdan oldin qanchadir muddat davom etgan harakatni ifodalay oladi, ammo



o‘zbek tilida **-gan edi, -yotgan edi, -b edi** kabi fe‘l formalari bunday ma‘noni yordamchi vositalarsiz, mustaqil ifodalash xususiyatiga ega emas.

Mashhur ingliz yozuvchisi Jorj Oruelning 1945 yilda chop etilgan masal janridagi “Molxona” (Animal farm) nomli satirik asari tarjimon K.Bahriyev tomonidan o‘zbek kitobxonlari e‘tiboriga taqdim qilingan bo‘lib, biz mazkur asarning tarjimasida asosida tahlil olib bordik. Ushbu asarda *Past Perfect Continuous* zamonini ishtirok etgan quyidagi parchani ko‘rib chiqamiz:

As the human beings approached the farm buildings, Snowball launched his first attack. All the pigeons, to the number of thirty-five, flew to and fro over the men’s heads and muted upon them from mid-air; and while the men were dealing with this, the geese, who had been hiding behind the hedge, rushed out and pecked viciously at the calves of their legs. (Animal farm, P.35)

Ushbu parcha o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

Odamlar inshootlarga yaqinlashishlari bilan, Snouboll birinchi zarbani berdi. Barcha o‘ttiz beshta kabutarlar hujumchilarning bosh ustida charx urardilar va ularning ko‘zi tushadigan ko‘rish maydonini to‘siq qo‘yardilar, odamlar ularni haydash bilan ovora bo‘lib turganda, devor ortida pisib turgan g‘ozlar oldinga chiqishdi va hamlakorlarning dumbalarini shavqatsiz cho‘qilay boshlashdi. (Molxona, B.30)

Mazkur tarjimada funksional ekvivalentlik an‘analariga e‘tibor

qaratilgan deb aytishimiz mumkin. Bu o‘rinda birinchi gapning tarjimasiga e‘tiroz bildira olmaymiz, ammo ikkinchi gapning tarjimasiga butunlay qo‘shila olmaymiz. Ushbu gapdan kitobxon umumiy vaziyatni tasavvur qilishi mumkin bo‘lsa-da, aslida original matnda vaziyat biroz boshqacharoq. Biz bu gapni quyidagicha tarjima qilgan bo‘lar edik:

O‘ttiz beshga yaqin kabutarlarning barchasi odamlar uzra charx urib, ularning ustiga o‘z ahlatlarini yog‘dira boshladilar va odamlar bu bilan ovora bo‘lib turgan bir paytda, devor ortida berkinib turgan g‘ozlar otilib chiqib, ularning boldirlarini shavqatsizlarcha cho‘qilay ketdilar.

Tarjimon K.Bahriyev original matndagi “muted upon them from mid-air” jumlasini bizning tarjimadagi kabi “ularning ustiga o‘z ahlatlarini yog‘dira boshladilar” deb tarjima qilmaganining sababi estetik va etik yondashuv sababli deb o‘ylaymiz.

Mavzumizdan kelib chiqib *Past Perfect Continuous* zamoniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, original matndagi “who had been hiding behind the hedge” jumlasini “devor ortida berkinib turgan” yoki “devor ortida pisib turgan” deb tarjima qilishimiz mumkin. Muammo shundaki, ingliz tilidagi matnni o‘qigan kitobxon g‘ozlar ancha muddatdan beri devor ortida berkinib turganini, kutish jarayoni odamlarning inshootga yaqinlashishlaridan oldin va kabutarlarni odamlarga hujumidan oldin boshlanganini anglashlari mumkin. Ammo, matnni o‘zbek tilida o‘qigan



o‘zbek kitobxonlari bunday semantik xususiyatni anglay olmaydi. Shuningdek, original matnda *Past Perfect Continuous* zamonlari nisbiy ergash gap (*Relative Clause*) tarkibida keltirilgan. Bunday ergash gaplarning vazifasi aniqlovchi vazifasida kelganligi tufayli ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda **-gan** affiksli sifatli birlik shaklida tarjima qilish to‘g‘ri bo‘ladi. Shu tufayli tarjimada “**edi**” to‘liqsiz fe‘li tushurib qoldirilgan. Aslida, bu holatni ham ikki tilning nomutanosibligi deb aytish mumkin, chunki ingliz tilidagi ega va kesim ishtirok etgan ergash gap o‘zbek tilida “ergash gaplik” xususiyatini yo‘qotib, sifatli birlikka aylanadi. E‘tiboringiz uchun *Past Perfect Continuous* qo‘llangan yana bir parchani havola etamiz:

I think you will be able to finish the windmill without me. There is a pretty good store of stone accumulated. I had only another month to go in any case. To tell you the truth, I had been looking forward to my retirement. (Animal farm, P.99)

Tarjimon bu matnning quyidagicha tarjima qiladi:

O‘ylaymanki, sizlar tegirmonni mensiz ham barpo etasizlar. Men bir katta to‘da harsanglarni to‘plab qo‘ydim. Menga bir oy yetmadi. Rostini aytganda, men dam olishni kutayotgan edim. (Molxona, B.83-84)

Ushbu tarjimada original matnning mazmuni, uning kitobxonga ta‘sirini to‘liq saqlangan. Ikkinchi gapning tarjimasida biroz g‘alilik mavjud. Biz bu gapni

“*Toshlarning ancha katta zahirasi to‘plangan*” deb tarjima qilgan bo‘lar edik. Uchinchi gapdagi “*I had been looking forward to my retirement*” qismini “*Men nafaqaga chiqishimni sabrsizlik bilan kutayotgan edim*” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Umuman olganda, har ikki holatda ham *Past Perfect Continuous* zamonida keltirilgan “*had been looking forward*”, gapning kesimi “*kutayotgan edim*” deb tarjima qilinmoqda.

Avvalgi misolimizda *Past Perfect Continuous* zamonlari (*had been hiding*) o‘zbek tilida **-gan** fe‘l formasini (pisib turgan/ berkinib turgan) olgan edi. Ikkinchi misolda esa (*had been looking forward*) **-yotgan** edi fe‘l formasini (*kutayotgan edi*) olganini guvohi bo‘lamiz.

Ingliz tilidagi *o‘tgan kelasi zamonlar (Future in the Past tenses)* ham o‘zbek tiliga tarjima jarayonida muammoli jihatlarga ega. Bu muammoning asl sababi o‘zbek tilida *o‘tgan kelasi zamonlarning mavjud emasligi* deb ayta olamiz. Quyida *o‘tgan kelasi zamonlar qo‘llangan kontekstlarni o‘zbek tiliga qanday tarjima qilinishini ko‘rib chiqamiz.*

They did not know when the Rebellion predicted by Major would take place, they had no reason for thinking that it would be within their own lifetime, but they saw clearly that it was their duty to prepare for it. (Animal farm, P.13)

Tarjimon K.Bahriyev ushbu parchani quyidagicha tarjima qiladi:



Ular qachon Mayor aytgan isyon ko'tarilishini bilishmasdi, ularda isyon ularning tirik hayotlari mobaynida yuz beradi, degan ishonch ham yo'q edi, ammo shuni aniq anglar edilarki, ular isyonni tayyorlashlari lozim. (Molxona, B.12)

Tarjima jarayonida tarjimon bu parchaning ma'no va mohiyatini o'zbek kitobxoniga mohirona yetkazib beradi. Matnning nafaqat semantik xususiyatlari, balki uning sintaktik tuzilishi ham saqlangan. Shunday bo'lsa-da, biz ham bu matnni yana bir tarjimasini ishlab chiqdik:

Ular Mayor tomonidan bashorat qilingan isyon qachon yuz berishini bilishmas, ularda bu isyon ularning tiriklik chog'ida bo'ladi, deb o'ylashga asos yo'q edi, ammo isyonni tayyorlash ularning vazifasi ekanligini aniq anglar edilar.

Bizning tarjimadagi sintaktik ravonlikni inobatga olmaganda, har ikki tarjima variantlarida ham semantik xususiyatlar birxil. Tarjima ishning keng ko'lamini inobatga olganda ba'zi kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol deb o'ylaymiz. Masalan "bilishmasdi" fe'lidagi **-di** fe'l formasi qo'llanmasligi lozim, chunki bu holatda gapning keyingi qisimlariga bog'lanmay qoladi. Shuningdek, vaziyatni o'tgan zamonda ekanligini inobatga olib "tayyorlashlari lozim" jumlasini "edi" to'liqsiz fe'li bilan qo'llanishi lozim deb o'ylaymiz.

Asl manbadan olingan ingliz tilidagi matnda ikki o'rinda o'tgan kelasi zamonning qo'llanishiga guvoh bo'lamiz.

Har ikki o'rinda ham o'tgan kelasi zamon to'ldiruvchi ergash gap (*Object clause*) tarkibida keltirilgan:

1. *when the Rebellion predicted by Major would take place* – qachon Mayor aytgan isyon ko'tarilishini; 2. *that it would be within their own lifetime* – isyon ularning tirik hayotlari mobaynida yuz beradi.

Birinchi misol ham, ikkinchi misol ham o'tgan zamondagi bosh gapdan keyin keltirilgan. Har ikki misolda ham tarjimon o'tgan kelasi zamonlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda grammatik bilim va semantik sezgirlik bilan yondashganligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi misolning o'zbek tilidagi tarjimasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan kelasi zamon murakkab to'ldiruvchi shaklini (*isyon ko'tarilishini*) olgan, ikkinchi misolni tarjima qilishda esa to'ldiruvchi ergash gap ko'chirma gap shaklida keltirilgan va o'tgan kelasi zamon (*would be*) "yuz beradi" deb tarjima qilinadi.

"Yuz beradi" jumlasini kontekstdan ajralgan holda kelasi zamonni anglatadi, ammo kontekst yordamida "degan ishonch ham yo'q edi" jumla vositasi orqali o'tmishga nisbatan kelajak aks ettiriladi. Endi navbatdagi misolni ko'rib chiqamiz:

As soon as they were weaned, Napoleon took them away from their mothers, saying that he would make himself responsible for their education. (Animal farm, P.29)

Tarjimon K.Bahriyev bu parchani quyidagicha tarjima qiladi:

Ular emizishdan chiqqan kuniyoq, Napoleon endi ularning ta'lim olishlariga



shaxsan o'zi javobgar ekanini aytib, kuchukchalarni onasidan olib qo'ydi. (Molxona, B.25)

Bu tarjimada payt ergash gap (*As soon as they were weaned*) “Ular sutdan chiqarilishi bilanoq” deb tarjima qilinganida estetik jihatdan yaxshiroq tarjima bo‘lar edi. Asosiy e’tiborni o‘tgan kelasi zamonga qaratadigan bo‘lsak, original matnda o‘tgan kelasi zamon o‘zlashtirma gap tarkibida keltirilgan (*saying that he would make himself responsible for their education*). Tarjimon K.Bahriyev bu gapni “*endi ularning ta’lim olishlariga shaxsan o‘zi javobgar ekanini aytib*” deb tarjima qiladi. O‘tgan kelasi zamon o‘tmishda gapirilgan paytga nisbatan kelajakni ifodalashini inobatga oladigan bo‘lsak, bu o‘rinda “*javobgar ekanini*” emas “*javobgar bo‘lishini*” deb tarjima qilish to‘g‘riroq bo‘lar edi deb o‘ylaymiz. “*Javobgar ekanini*” deb aytilganida gapirilayotgan paytdagi javobgarlik anglashiladi, “*javobgar bo‘lishini*” deb aytilganida esa gapirilayotgan paytga nisbatan kelajakda javobgar bo‘lish tushuniladi.

O‘tgan kelasi zamon qo‘llangan yana bir misolning tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

The whole farm was deeply divided on the subject of the windmill.

Snowball did not deny that to build it would be a difficult business. (Animal farm, P.43.)

Ushbu misol quyidagicha tarjima qilingan:

Tegirmon haqidagi masala molxonada jiddiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Snoubollning nuqtai nazariga ko‘ra, tegirmonni qurish unchalik qiyin bo‘lmaydi.

Birinchi gapning tarjimasiga e’tiroz bildira olmaymiz. Unda mazmun va mohiyat o‘zbek kitobxonini uchun to‘liq ochib berilgan, ammo ikkinchi gap yuzasidan bunday deya olmaymiz. Ikkinchi gapning tarjimasida jiddiy hatolik yuz bergan. Aslida ikkinchi gap “*Snouboll tegirmonni qurish qiyin bo‘lishini inkor etmadi*” deb tarjima qilinganida, original matndagi mazmun to‘g‘ri yetkazilgan bo‘lar edi. Bu vaziyatda Snouboll o‘tmishda tegirmonning kelajakda qurilishi haqida fikr yuritganligi tufayli o‘tgan kelasi zamon qo‘llangan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, o‘tgan kelasi zamondagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonlar bu zamonning nozik semantik xususiyatlarini e’tiborga olishlari lozim. Aks holda, asl matndagi mazmun kitobxonga to‘g‘ri ifodalab berilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Orwell G. Animal farm. – New-york: Haddon craftsmen scranton, 1946.–118 p.
2. Оруэлл Ж. Молхона. – Тошкент: Нихол, 2025. – 100 б.
3. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur – Bo‘stoni, 2012. – 216 b.